DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-90 Pages: 770-777

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE COMMENTARIES WRITTEN ON ABDURAHMAN JAMI'S "FAWA'ID AL-DIYA'IYYA"

Ikrom Y. Bultakov
Associate Professor, Candidate of Philological Sciences
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: bultakov68@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

Dilfuza A. Vohidova
Linguistics (Arabic language) first-year Master's student
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: dilfuzavohidova7@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: "Fawa'id al-Ḍiya'iyya", Abdurahman Jami, ḥawāshī, tradition of commentary, Arabic linguistics, grammatical explanation, scholarly interpretation, textual analysis, academic heritage.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article provides detailed information about the commentaries (ḥawāshī) written on Abdurahman Jami's "Fawa'id al-Ḍiya'iyya". Ḥawāshī are an integral part of the Eastern scholarly tradition, serving to deepen the understanding and interpretation of texts. The article discusses the well-known ḥawāshī on "Fawa'id al-Ḍiya'iyya", their authors, reasons for their composition, and their scholarly significance. Additionally, it examines the stylistic approaches used in these ḥawāshī and their contribution to understanding Jami's work. The study highlights the role of these commentaries as part of the academic heritage and their importance in Arabic linguistics and grammar.

ABDURAHMON JOMIYNING "FAVOIDUZ ZIYOIYYA" ASARIGA YOZILGAN HOSHIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Ikrom Y. Bultakov

Dotsent, filologiya fanlari nomzodi,
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Email: bultakov68@gmail.com
Dilfuza A. Vohidova
Lingvistika (arab tili) yo'nalishi I bosqich magistranti
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Email: dilfuzavohidova7@gmail.com
O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar "Favoiduz ziyoiyya", Abdurahmon Jomiy, hoshiyalar, hoshiyachilik an'anasi, arab tilshunosligi, grammatik izoh, ilmiy sharh, matn tahlili, ilmiy meros.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurahmon Jomiyning "Favoiduz ziyoiyya" asariga yozilgan hoshiyalar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Hoshiyachilik Sharq ilmiy an'anasining ajralmas qismi bo'lib, matnni chuqur anglash va izohlashga xizmat qiladi. Maqolada "Favoiduz ziyoiyya"ga yozilgan mashhur hoshiyalar, ularning mualliflari, yozilish sabablari va ilmiy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ushbu hoshiyalarning qanday uslubda yozilgani, ularning "Favoiduz ziyoiyya" asarini tushunishga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari hoshiyalarning ilmiy meros sifatidagi o'rnini ko'rsatib, arab tilshunosligi va grammatikasidagi ahamiyatini ochib beradi.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ХАШИЙ К ТРУДУ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ "ФАВОИДУЗ ЗИЁИЙЯ"

Икром Ю. Бултаков
Доцент, кандидат филологических наук
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: bultakov68@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

Дилфуза А. Вохидова
Лингвистика (арабский язык), магистрантка 1-го курса
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: dilfuzavohidova7@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: "Фавоидуз Зиёийя", Абдуррахман Джами, хашии, традиция комментирования, арабское языкознание, грамматическое пояснение, научная интерпретация, текстовый анализ, научное наследие.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о хашиях (ḥawāshī), написанных к труду Абдуррахмана Джами "Фавоидуз Зиёийя". Хашии являются неотъемлемой частью восточной научной традиции, способствуя

глубокому пониманию и толкованию текстов. В статье рассматриваются наиболее известные хашии к “Фавоидуз Зиёийя”, их авторы, причины написания и научное значение. Также анализируются стилистические подходы, используемые в этих хашиях, и их вклад в понимание труда Джами. Исследование подчеркивает роль этих комментариев как части научного наследия и их значение в арабском языкознании и грамматике.

Kirish. Abdurahmon Jomiyning “Favoiduz ziyoiyya” asari arab tilshunosligida muhim manbalardan biri boʻlib, uni oʻrganish jarayonida koʻplab olimlar tomonidan turli hoshiyalar yozilgan. Hoshiyachilik an’anasi Sharq ilmiy maktablarida keng rivojlangan boʻlib, asarlarning mazmunini chuqurroq tushuntirish, murakkab jihatlarini izohlash va ilmiy bahslar yuritish maqsadida yozilgan izohlar tizimini oʻz ichiga oladi. Ayniqsa, grammatik asarlarga yozilgan hoshiyalar matnni tahlil qilish, u bilan bogʻliq qiyinchiliklarni yengillashtirish va tushunishni osonlashtirishda muhim oʻrin tutgan.

Ushbu maqolada “Favoiduz ziyoiyya” asariga yozilgan mashhur hoshiyalar haqida batafsil ma’lumot beriladi. Hoshiyalarning yozilish sabablari, ularning ilmiy ahamiyati va arab tilshunosligi rivojiga qoʻshgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu hoshiyalarning oʻzaro bogʻliqligi va ularning “Favoiduz ziyoiyya matnini anglashdagi roli ham yoritiladi. Maqolaning asosiy maqsadi hoshiyachilik an’anasining ilmiy qadriyatini koʻrsatish va ushbu merosning bugungi ilmiy izlanishlardagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jomiyning “Favoiduz ziyoiyya” asari va unga yozilgan hoshiyalarni oʻrganishda Sharq nahviy merosi va grammatik tafsir usullariga oid bir qator muhim manbalarga tayanildi. Ibn Hojibning “Al-Kofiya fi an-Nahv” asari ushbu tadqiqotning asosiy nazariy bazasini tashkil etdi, chunki “Favoiduz ziyoiyya mazkur asarning sharhi sifatida yozilgan. Shuningdek, Anvarov A. ning “Jomiy va uning nahv ilmiga qoʻshgan hissasi” kitobi Jomiyning grammatikaga qoʻshgan hissasini tushunishda muhim manba boʻldi. Maqolada qiyosiy-tahliliy va tarixiy-uslubiy yondashuv qoʻllanildi. Hoshiyalarning matnga ta’sir darajasi, ularning izoh uslubi va terminologiyasi qiyosiy tahlil asosida oʻrganildi. Shuningdek, tarixiy-uslubiy yondashuv orqali hoshiyalarning paydo boʻlish sabablari, ularning ilmiy an’anadagi oʻrni va grammatik tafsir usullariga ta’siri tahlil qilindi. Ushbu metodlar yordamida “Favoiduz ziyoiyya” asari va unga yozilgan hoshiyalarning arab grammatikasidagi oʻrni va ahamiyati aniqlanib, ularning arab tilshunosligi va nahv ilmidagi roli yoritildi.

Natijalar. Ibn Hojibning “Al-Kofiya” kitobiga yozilgan eng yaxshi sharhlardan biri bu – Abdurahmon Jomiyning “Favoiduz ziyoiyya” asaridir. Jomiy o’zining ushbu asarida “Al-

Kofiya" dagi murakkab masalalarni hal qilishga harakat qilgan, o'zidan avval yozilgan sharhlardagi foydali ma'lumotlarni jamlagan hamda o'quvchiga oson va tushunarli tarzda taqdim qilgan.

Abdurahmon Jomiyning Ziyouddin Yusuf ismli o'g'li bo'lib, u Ibn Hojibning "Kofiya" asarini o'qib, ba'zi mujmal o'rinlaridan ko'ngildagidek tushuncha hosil qilmadi. O'sha kungacha yozilgan sharhlardan qoniqish hosil qilmay otasidan "Kofiya" asariga sharh yozib berishini iltimos qildi. Jomiy o'g'li Ziyouddin Yusufning taklifini inobatga olib unga sharh yozdi. Jomiy asarini o'g'lining nomi bilan, ya'ni "Favoiduz ziyoiyya" deb nomladi. Albatta, Jomiy ushbu asarini nafaqat o'g'li, balki barcha ilm tahsil qiluvchilarga boshlang'ich qo'llanma sifatida yozganini asarning kirish qismida aytib o'tdi. Ushbu asarni Jomiy vafotidan bir yil oldin, hijriy 897-yili 11-Ramazon, shanba kuni yozib tugatdi.

Bu kitob o'z zamonasining ulamolari orasida katta nufuzga ega bo'lib, bugungacha o'z obro'sini saqlab qolgan. Ulamolar bu sharh Jomiyning yozgan sharhlari ichida eng yaxshisi deya e'tirof etishgan. "Markaziy Osiyo hududida "Favoiduz ziyoiyya" asaridan so'ng arab tilining grammatikasiga bag'ishlangan mukammal asar yaratilmagan. Ushbu asar yozilgan davridan boshlab, butun O'rta Osiyo va Idil bo'yi tatarlari madrasalarida ham asosiy darsliklardan biri bo'lib xizmat qilgan" . (Shomuhammedov, 1963. P. 83.) Ushbu kitob Ibn Hojibning "Kofiya" asariga sharh bo'lgani uchun u kishining kitoblaridagi tartib o'zgartirilmagan. Kitobda kirish so'zidan so'ng kalima va Kalom haqida so'z boradi. So'ng g'ayrul-munsarif, marfuot, mansubot, majrurot, tavobe'lar, mabniyyot hamda ismlar va uning lavohiqlari, fe'llar hamda harf haqida so'z boradi . (Jomiy, 1990, p. 5.)

Abdurahmon Jomiy "Kofiya" asariga yozgan "Favoiduz ziyoiyya" sharhi nafaqat ilgari, hattoki hozirgi kunimizda madrasalarimizda talabalarga o'qitilib, sevimli darsliklar qatoridan joy olgan. Misrlik mashhur olim Muhammad Tantoviy "Nash'atu-n-nahvi va ta'rixu ashhuri-n-nuhhati" ("Nahvning paydo bo'lishi va mashhur nahvshunoslar tarixi") nomli asarida Usmoniylar saltanati davrida "Favoiduz ziyoiyya" arab tili bo'yicha asosiy qo'llanmalardan biri bo'lgani va ushbu asarga hoshiyalar yozilgani, hoshiya ustiga hoshiyalar bitilgani haqida ma'lumot keltiradi . (Al-Tantoviy, 2005. P. 325.) Bu uning ilmiy va amaliy ahamiyati qanchalar yuqori ekanidan dalolatdir. "Favoiduz ziyoiyya" ga yozilgan hoshiyalar quyidagilardan iborat:

- Ibrohim ibn Sulaymon al-Kurdiy hoshiyasi;
- Ibrohim ibn Muhammad Isomuddin al-Asfaroiniy (1149-hijriy yilda vafot etgan) hoshiyasi. Ushbu hoshiya bir necha marta nashr etilgan. Unga Muhammad Amin al-Askadoriy va Muhammad al-Kurdiylar hoshiya yozishgan;
- Ibrohim ibn Muhammad al-Maymuniy (1079-hijriy yilda vafot etgan) hoshiyasi. Ushbu hoshiyaga al-Muqrimiy hoshiya yozgan;

- Ahmad ibn Ibrohim al-Halabiy hoshiyasi. “Marfuotlar” bobigacha yozgan va 971-hijriy yilda vafot etgan;
- Ahmad al-Abyuriy hoshiyasi;
- Ahmad Qarja al-Humaydiy (1024-hijriy yilda vafot etgan) hoshiyasi;
- Bobosayyid ibn Muhammad al-Buxoriy hoshiyasi;
- Jamoliddin ibn shayx Nosiruddin hoshiyasi. 1019-hijriy yilda yozib tugatgan va 1295-hijriy yilda Laknada nashr etilgan.
- Hasan al-Bahriy hoshiyasi;
- Husayn al-Qaroviy hoshiyasi;
- Zaynizoda al-Rumiy hoshiyasi;
- Sodiq Halvoiy hoshiyasi;
- Sadriddin Abu Safo al-Husayniy, Mulla Sadr al-Halvoniy hoshiyasi;
- Abu Tolib ibn Amirul fath al-Sheroziy hoshiyasi;
- Abdulloh al-Azhariy hoshiyasi;
- Abdulloh ibn Solih ibn Mu’in al-Islombuliy hoshiyasi. 1288-hijriy yilda Hindistonda bosilib chiqqan;
- Abdulloh ibn Tursun (Fayziy taxallusi bilan mashhur) hoshiyasi. “Marfuotlar” bobiga qadar yozgan;
- Abdulhakim al-Lahoriy hoshiyasi;
- Abdurahmon ibn Mahmud al-Asfaroiniy hoshiyasi. 1295-hijriy yilda Hindistonda nashr etilgan;
- Abdurahim ibn Abdulkarim al-Safiyuriy hoshiyasi. Uning nomi “Hallu shavahid Favoiduz ziyoiyya” (“Favoiduz ziyoiyya” dalillarini sharhlash) bo’lib, litografik nashrda boshqa asarlar bilan birga chop etilgan. Undan bir nusxa al-Azhar kutubxonasida saqlanadi;
- Abdulg’ofur Loriy (912-hijriy yilda vafot etgan) hoshiyasi. Bu inson Jomiyning shogirdlaridan bo‘lib, “Mabniyyot” bobining “Tovushlar” bo‘limigacha yozgan. Ushbu hoshiya ko’plab marotaba nashr etilgan bo’lib, unga Abdulhakim as-Siyalkutiy, Abdulloh al-Labib, G’ulom Haydar, Abdulloh ibn Ibroz Kakxol, G’ulom Muhammad Qozi Lahoriylar hoshiyalar yozishgan;
- Abdulkarim al-Kirmoniy hoshiyasi. 1035-hijriy yilda yozib tugatgan;
- Ismatuddin Mahmud hoshiyasi;
- Ismat Sahoznaburiy (1039-hijriy yilda vafot etgan) hoshiyasi;
- Ali ibn Amrulloh hoshiyasi. Ushbu hoshiya Sulton Salim ibn Sulaymonxon nomiga bag’ishlangan;

- Ali Shokir ibn Husayn Cherkas al-Borsiy hoshiyasi. 1286-hijriy yilda Buloqda chop etilgan. Ushbu hoshiya “Favoiduz ziyoiyya” muqaddimasi bo’yicha izoh va sharhlardan iborat;
- Inoyatulloh ibn Ne’matulloh al-Buxoriy (1273-hijriy yilda vafot etgan) hoshiyasi;
- Muharram Afandi al-Bosnaviy al-Islombuliy hoshiyasi;
- Muhammad Abulbaqo ibn Ahmad hoshiyasi;
- Muhammad ibn Ahmad as-Samarqandiy hoshiyasi;
- Muhammad Hofizuddin at-Toshqandiy hoshiyasi;
- Muhammad Rahmiy ibn al-Hoj Ahmad al-Akiniy hoshiyasi. 313-hijriy yilda yozib tugatilgan va 1313-hijriy yilda Ostonada nashr etilgan;
- Muhammad Sa’diy Ja’fariy hoshiyasi. Ushbu hoshiya fors tilida bo’lib, 1102-hijriy yilda yozib tugatilgan;
- Muhammad Shams Ko’histoniy hoshiyasi. 952-hijriy yilda yozib tugatilgan;
- Muhammad Sharif ibn Muhammad al-Husayniy al-Alaviy hoshiyasi;
- Muhammad Sodiq al-Kobuliy hoshiyasi;
- Muhammad ibn Saloh Muslihiddin Loriy (979-hijriy yilda vafot etgan) hoshiyasi;
- Muhammad Ismatulloh ibn Mahmud al-Buxoriy hoshiyasi. Kitobning yarmiga qadar hoshiya yozgan, so’ngra vafot etgan. Ushbu hoshiyaga Abdurahmon ibn Mahmud al-Buxoriy hamda Abd ibn Mahmud al-Isfaroiniylar hoshiyalar yozishgan;
- Muhammad ibn Ali Xo’jakiy Sheroziy hoshiyasi;
- Muhammad ibn Umar al-Kobuliy hoshiyasi. Ushbu hoshiya 1313-hijriy yilda Dehlida nashr etilgan;
- Muhammad ibn Muso al-Bosnaviy hoshiyasi. 1035-hijriy yilda yozib tugatgan;
- Maqsud Afandi hoshiyasi. U “Favoiduz ziyoiyya” ning muqaddimasiga hoshiya yozgan;
- Ne’matulloh ibn Abdulloh al-Jazoiriy (1112-hijriy yilda vafot etgan) hoshiyasi. Ushbu hoshiya 1277-hijriy sanada Tehronda, 1879-milodiy yilda esa Laknada nashr etilgan;
- Nurulhaq ibn Abdulhaq ad-Dehlaviy (1023-hijriy yilda vafot etgan) hoshiyasi;
- Vajihuddin Umar ibn Abdulmuhsin al-Arzanjoniy hoshiyasi;
- Vajihuddin al-Alaviy al-Gujarotiy (1000-hijriy yilda vafot etgan) hoshiyasi.

Ushbu hoshiyalar bir-biridan farqlanib, har biri o‘ziga xos yondashuv va ilmiy ustunliklarga ega bo‘lgan.

1. Vajihuddin Umar ibn Abdulmuhsin al-Arzanjoniy hoshiyasining o’ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

• Asosan grammatik qoidalarning fiqhiy qiyos bilan bog‘liqligi haqida muhokamalarni o‘z ichiga olgan. Ayni shu yo’nalishi bilan u boshqa hoshiyalardan ajralib turadi.

• O‘z hoshiyasida “Favoiduz ziyoiyya” dagi bahs-munozarali grammatik masalalarga tushuntirish bergan.

• Boshqa sharhlardan farqli ravishda, sarfiy masalalariga ham batafsil to‘xtalib o‘tgan.

2. Abdulg’ofur Loriy (912-hijriy yilda vafot etgan) hoshiyasining o’ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

• “Favoiduz ziyoiyya” dagi har bir jumlani lingvistik va mantiqiy nuqtai nazardan sharhlagan.

• Sharhlari sof tilshunoslik nuqtai nazaridan yozilgan bo‘lib, asosan nahv va sarf qoidalarining izohlari berilgan.

• Matnda keltirilgan arab lahjalari va eski grammatik foydalanishlarga oid tushuntirishlar mavjud.

• Uning sharhlari aniq va tushunarli bo‘lib, boshqa hoshiyalarga asos sifatida xizmat qilgan.

• Talabalar va grammatikaga qiziqqanlar uchun qulay va mantiqan to‘g‘ri yo‘nalish bergan.

3. Ibrohim ibn Muhammad Isomuddin al-Asfaroiniy (1149-hijriy yilda vafot etgan) hoshiyasining afzalliklari quyidagilardan iborat:

• “Favoiduz ziyoiyya” ning har bir qoidasi bo‘yicha chuqur ilmiy izoh bergan. Ayrim joylarda Imom Sibavayh va boshqa nahviylar fikrlarini tahlil qilgan.

• Nahviy terminlarning asosiy tushunchalarini batafsil yoritgan.

• Sharh shakli juda batafsil va tizimli bo‘lib, keyingi avlod olimlari uchun asosiy manba hisoblanadi. Muallif ko‘p misollar orqali qoidalarni isbotlab bergan.

4. Abdulbasit ibn Xalil al-Misriy hoshiyasining o’ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

• “Favoiduz ziyoiyya” dagi qoidalarning har bir bandi bo‘yicha izohlar bergan.

• Boshqa grammatik tushunchalar bilan qiyosiy tahlil olib borgan.

• Matndagi kalimalarning etimologik tushuntirishlarini ham keltirgan.

• Terminlar va grammatik kategoriyalarni aniq ta’riflagan.

• Yevropa grammatikasi va arab grammatikasini solishtirish metodologiyasiga asos bo‘lgan.

5. Muhammad ibn Ahmad as-Samarqandiy hoshiyasining o’ziga xosliklari quyidagilardan iborat:

• “Favoiduz ziyoiyya” ning sintaktik tuzilmalari haqida batafsil tushuntirishlar bergan.

• Ayrim grammatik qoidalarning mantiqiy asoslarini izohlab, ularning islomiy huquq bilan bog‘liqligini ko‘rsatib o‘tgan.

• Sharhlari qiyosiy yondashuvga asoslangan.

• Nahv ilmini fiqh bilan bog'lash uslubini davom ettirgan.

6. Shamsiddin Muhammad al-Ko'histoniy hoshiyasining o'ziga xos xususiyatlari:

• Asosiy e'tibor tilning amaliy foydalanishiga qaratilgan.

• Grammatik qoidalar turli tarixiy asarlardan misollar bilan mustahkamlangan.

• Ushbu sharh ko'proq tilshunoslik va amaliy grammatika bilan shug'ullanuvchilar uchun foydalidir.

• "Favoiduz ziyoiyya" ning murakkab qoidalarini oddiy va tushunarli tilda bayon etgan.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, "Favoiduz ziyoiyya" asariga yozilgan ushbu hoshiyalar arab tilshunosligida muhim ilmiy meros bo'lib, ular grammatik qoidalarni har tomonlama yoritishga xizmat qilgan.

"Favoiduz ziyoiyya" asariga yozilgan ushbu hoshiyalarning har biri o'ziga xos yondashuv va metodologiyaga ega. Ularning ba'zilari mantiq va fiqh bilan bog'liq tahlillar olib borsa, boshqalari nahv qoidalarini chuqur tahlil qilish va tushuntirishga qaratilgan. Bularning barchasi arab tilshunosligi rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan va arab grammatikasi bo'yicha eng muhim ilmiy an'analar asosiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Al-Ṭanṭoviy, Muḥammad. (2005). The Emergence of Arabic Syntax and the History of the Most Famous Grammarians. Nashʾat al-Naḥw wa Taʾrikh Ashhar al-Nuḥat. – Egypt: Dar al-Maʿarif. (in Arabic)
2. Anvarov, A. (2001). Jami and His Contribution to the Science of Arabic Syntax. Jomiy va uning nahv ilmiga qo'shgan hissasi. – Tashkent: Fan. (in Uzbek)
3. Gulomov, N. (2003). Main Trends in Arabic Linguistics. Arab tilshunosligining asosiy yo'nalishlari. – Tashkent: Uzbekistan National Encyclopedia. (in Uzbek)
4. Ibn Ḥajib. (2005). Al-Kafiya in Syntax. Al-Kafiya fi al-Naḥw. – Cairo: Al-Maktaba al-ʿAṣriyya, (in Arabic)
5. Jami, Abdurahman. (1990). The Benefits of Radiance in the Commentary on al-Kafiya. Al-Fawa'id al-Ḍiya'iyya fi Sharḥ al-Kafiya. – Tehran: Intisharat-i ʿIlmiyya, (in Arabic)
6. Mahmudov N. Stages of Development of Arabic Grammar. Arab grammatikasining rivojlanish bosqichlari. (2005). Tashkent: University Publishing. (in Uzbek)
7. Shomuhammedov, Sh. (1963.). The life and work of Abdurahman Jami. Abdurahmon Jomiy hayoti va ijodi. – Tashkent: (in Uzbek)